

Date: 5th June-2025

**O'QUVCHILARDA KASB TANLASHGA PSIXOLOGIK TAYYORLIKNI
SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O'RNI**

Vasiyeva Go'zal Ismatullayevna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani, 33-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Amaliyotchi psixolog

Abdurahmonova Guljaxon Faxriddinovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani, 33-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Kasb-hunarga yo'llovchi psixolog

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab bosqichida o'quvchilarda kasb tanlashga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish masalasi yoritiladi. Psixologik tayyorgarlikning bosqichlari, shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash metodlari, maktab psixologining bu jarayondagi funksiyalari hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Muallif maktab psixologi faoliyatini o'quvchining ichki ehtiyojlari va hayotiy rejasiga uyg'unlashtirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, psixologik tayyorgarlik, maktab psixologi, motivatsiya, qobiliyat, kasbiy maslahat, o'quvchi shaxsi

Kasb tanlash har bir inson hayotida muhim va ta'sirchan qarorlardan biridir. Bu tanloving poydevori esa maktab davrida shakllanadi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari kasbiy kelajagini belgilashda ko'plab ichki va tashqi omillarga duch keladi. Ularning bu jarayondagi psixologik tayyorgarligi ko'plab omillarga, jumladan, maktab psixologining malakasi va yondashuviga ham bog'liq.

Maktab psixologi o'quvchining shaxsiy rivojlanishini kuzatib boruvchi, ichki holatini tahlil qiluvchi, zarur paytda ruhiy yordam ko'rsatadigan mutaxassis sifatida kasb tanlashda ham bevosita ishtirok etadi. U o'quvchilarning o'zini anglashiga, shaxsiy qiziqishlarini tan olishiga, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashiga yordam beradi. Shu tariqa, o'quvchi ongli tanlovga tayyorlanadi.

Psixologik tayyorgarlik jarayoni bir yoqlama emas, balki murakkab va izchil bosqichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo o'quvchining o'zini anglashiga, shaxsiy ustunlik va kamchiliklarini tushunib yetishiga yordam berish zarur. Bu bosqichda turli psixodiagnostik testlar, suhbatlar va kuzatuv metodlari qo'llaniladi. O'quvchi qaysi faoliyat turiga moyil ekanini, qanday sharoitda o'zini erkin his qilishini bilib oladi. Keyingi bosqichda o'quvchiga kasblar haqida zaruriy ma'lumotlar beriladi. Har bir kasbning talablari, mehnat bozori ehtiyojlari, kasb tanlashda ahamiyatli bo'lgan psixologik fazilatlar muhokama qilinadi. Bu orqali o'quvchi o'z orzulari bilan real imkoniyatlarini solishtirib, ongli tanlovga yaqinlashadi.

Tanlovni ongli qilishda o'ziga ishonch va motivatsiya yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun maktab psixologi nafaqat maslahat beradi, balki o'quvchining ichki ishonchini mustahkamlash, tanqidiy fikrlashini shakllantirish, ijtimoiy muhitga

Date: 5th June-2025

moslashuvchanlikni kuchaytirish bilan ham shug‘ullanadi. Bu esa shaxsiy yondashuvga asoslangan treninglar, rolli o‘yinlar, guruhiy muhokamalar orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, ota-onalar bilan ishslash psixologik tayyorgarlikda alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab psixologi farzandining imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, unga bosim o‘tkazmaslik, balki psixologik qo‘llab-quvvatlashga chaqirgan holda ota-onalarga maslahatlar beradi. Bu hamkorlik natijasida o‘quvchi o‘z kasbiy tanlovida erkin va xotirjam bo‘ladi. Zamonaviy psixologiyada kasbga yo‘naltirishning yangi metodlari joriy etilmoqda. Ular orasida virtual kasb muhitiga kirish imkonini beruvchi simulyatsiyalar, kasbiy portfoliolar, elektron test tizimlari va onlayn maslahat platformalari mavjud. Bularning barchasi maktab psixologining ishini zamonaviylashtirishga va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kasb tanlashga tayyorlangan o‘quvchi o‘z qarorini mas’uliyat bilan qabul qiladi, kelajagiga ishonch bilan qadam qo‘yadi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga, yoshlarda ruhiy barqarorlik va ijtimoiy faollikning ortishiga olib keladi. Maktab psixologi ushbu jarayonning ko‘rinmas, ammo hal qiluvchi qahramonidir. U orqali o‘quvchi nafaqat kasb, balki o‘zini, o‘z imkoniyatlarini va hayot yo‘lini tanlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.G‘oziyev, E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 368 b.
- 2.Sharafutdinova, Z. Sh. G. Differensial psixologiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022. 152 b.
- 3.Yusupov, B. K. Maktab psixologiyasi asoslari. – Samarqand: SamDU, 2020. – 220 b.
- 4.Xell, Dj. P. Psixologiya professional tanlov. – Moskva: Pedagogika, 2017. 280 s.
- 5.Maklakova, A. Y. Umumiy psixologiya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2020. – 512 s.